Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

MA’RIFAT — MILLIY TARAQQIYOT VA YUKSALISH ASOSI

Shoxida Turdaliyevna Abbosova*
Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
✉ abbosovashokhida@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda kechgan milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik jarayonlari Obidjon Mahmud (1871–1936) faoliyati misolida tahlil qilingan. Uning Farg‘ona vodiysi jadidchilik harakatidagi o‘rni, milliy matbuotni rivojlantirish, xalqning ijtimoiy ongi va siyosiy tafakkurini yuksaltirish, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini ommalashtirish borasidagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, Obidjon Mahmudning noshirlik, tadbirkorlik va jamoatchilik faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi hamda uning milliy taraqqiyotga oid qarashlarining tarixiy ahamiyati ochib berilgan. Ma’rifatni millat ravnaqining muhim sharti sifatida baholagan jadidlar g‘oyalarining bugungi kundagi ahamiyati xususida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar

Obidjon Mahmud, jadidchilik, ma’rifat, milliy taraqqiyot, milliy uyg‘onish, Farg‘ona vodiysi, «Sadoi Farg‘ona», matbuot, noshirlik, ta’lim.

DOI: 10.5281/zenodo.23281755

KIRISH

Millatning tarixiy taraqqiyotida ma’rifat, ilm-fan va ta’lim jamiyatni yangilashning eng muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan. Ma’rifatli jamiyatda insonning nafaqat bilim darajasi, balki uning ijtimoiy faolligi, milliy o‘zligini anglashi, Vatan va millat taqdiriga daxldorlik hissi ham yuksalib boradi. Shu sababli ma’rifat tushunchasini faqat savodxonlik yoki ta’lim olish jarayoni bilan cheklash to‘g‘ri emas. U jamiyat tafakkurini o‘zgartiruvchi, milliy uyg‘onishni ta’minlovchi va taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratuvchi ijtimoiy-ma’naviy kuchdir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri ham xalqni ma’rifatli qilish, zamonaviy bilimlarni egallashga undash va shu orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashdan iborat edi. Jadidlar maktab, matbuot, adabiyot, teatr, iqtisodiy faollik va jamoat tashkilotlaridan milliy uyg‘onish vositasi sifatida foydalandilar.

Farg‘ona vodiysida shakllangan jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Obidjon Abdulxoliq o‘g‘li Mahmud (Mahmudov) edi. Uning hayot yo‘li o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Obidjon Mahmud bir vaqtning o‘zida ziyoli, tog‘-kon sohasi mutaxassisi, tadbirkor, noshir, jamoat va siyosat arbobi sifatida faoliyat olib borgan. Tadqiqotlarda u Farg‘ona taraqqiyparvarlarining peshqadam vakillaridan biri sifatida baholanadi.[1] Uning faoliyatini o‘rganish jadidchilikning faqat ta’lim yoki adabiyot bilan cheklanmaganini, balki iqtisodiy taraqqiyot, milliy matbuot, jamoatchilik faolligi va milliy davlatchilik g‘oyalarini ham qamrab olgan keng ijtimoiy harakat bo‘lganini anglash imkonini beradi.

Obidjon Mahmud 1871-yilda tavallud topgan. U dastlab an’anaviy ta’lim olgan, keyinchalik Rossiyada zamonaviy kasbiy bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘lgan. Manbalarda uning Sankt-Peterburgda tog‘-kon sohasida tahsil olgani va xalqimiz orasidan yetishib chiqqan dastlabki tog‘-kon muhandislaridan biri bo‘lgani qayd etiladi.[2] Uning hayot yo‘lidagi mazkur jihat juda muhimdir. Chunki jadid ma’rifatparvarlarining asosiy g‘oyalaridan biri yoshlarni zamonaviy ilm-fan va dunyoviy kasblarni egallashga yo‘naltirish edi. Obidjon Mah-

mudning o‘z hayoti ham ushbu g‘oyaning amaliy ifodasi bo‘lib xizmat qildi. U Cheleken yarim orolida neft sanoati bilan bog‘liq faoliyat olib borgan, keyinchalik Qo‘qonga qaytib, tog‘-kon sanoati bilan shug‘ullangan. Farg‘ona vodiysida neft konlarini o‘zlashtirish ishlarida ishtirok etgani, Sho‘rsuvdagi oltingugurt koni bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyati olib borgani haqida ma’lumotlar mavjud.[3] Bu holat Obidjon Mahmud shaxsiyatining yana bir muhim xususiyatini ko‘rsatadi. U taraqqiyotni faqat nazariy tarzda targ‘ib qilmagan, balki iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyati orqali ham zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishga intilgan.

Jadidlar nazdida milliy taraqqiyot uchun ma’rifatli inson bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan faol va mustaqil fikrlaydigan shaxs ham zarur edi. Obidjon Mahmud faoliyatida ma’rifat, zamonaviy kasbiy bilim, tadbirkorlik va milliy manfaat tushunchalarining o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rish mumkin.

Ma’rifat yo‘lida milliy matbuotning o‘rni

XX asr boshlarida Turkiston jadidlari milliy matbuotga jamiyatni uyg‘otish va xalqni ma’rifatli qilishning eng ta’sirchan vositalaridan biri sifatida qaradilar. Chunki gazeta va jurnal orqali bir vaqtning o‘zida keng jamoatchilikka murojaat qilish, dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar haqida ma’lumot berish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish va yangicha g‘oyalarni targ‘ib etish mumkin edi. Obidjon Mahmudning ma’rifatparvarlik faoliyatida ham matbuot alohida o‘rin egalladi. U 1914-yilda Qo‘qonda bosmaxona tashkil etib, milliy matbuot rivojiga amaliy hissa qo‘shdi.[4] Ayniqsa, «Sadoi Farg‘ona» gazetasining nashr etilishi Farg‘ona vodiysi ijtimoiy-madaniy hayotida muhim voqealardan biri bo‘ldi. Obidjon Mahmud ushbu nashrning noshiri va muharriri sifatida faoliyat yuritdi. Keyingi yillarda «Tirik so‘z» gazetasi, shuningdek, rus tilidagi «Ferganskoye exo» nashri bilan bog‘liq faoliyati ham uning matbuotni jamiyat taraqqiyotining muhim vositasi sifatida tushunganini ko‘rsatadi.[5] Bu nashrlarning ahamiyati shunda ediki, ular orqali xalqqa nafaqat xabar va ma’lumotlar yetkazildi, balki jamiyatning mavjud ahvoli, ta’lim, madaniyat, iqtisodiy hayot, ijtimoiy munosabatlar va taraqqiyot masalalari xususida fikr yuritish uchun axborot maydoni vujudga keldi. Obidjon Mahmud jadid matbuotidagi chiqishlarida xalqning ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, ma’rifatni keng tarqatish, hurlik va taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib etishga intildi.[6] Shu ma’noda uning noshirlik faoliyatini oddiy tadbirkorlik faoliyati sifatida emas, balki milliy uyg‘onish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash lozim. Milliy matbuot xalq bilan ziyolilar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajardi. Gazeta sahifalarida ko‘tarilgan muammolar odamlarni jamiyatdagi o‘zgarishlarga befarq bo‘lmaslikka, atrofda sodir bo‘layotgan jarayonlarni anglashga va ular haqida mustaqil fikr yuritishga undadi.

Obidjon Mahmud faoliyatida ma’rifat va milliy taraqqiyot uyg‘unligi

Obidjon Mahmud faoliyatini tahlil qilishda uning ma’rifatparvarlik qarashlarini ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faoliyatidan ajratib bo‘lmaydi. Uning hayot yo‘lida bu uch yo‘nalish bir-birini to‘ldirib turgan.Birinchidan, Obidjon Mahmud zamonaviy bilim va kasb egallashning amaliy namunasini ko‘rsatdi. Tog‘-kon sohasidagi mutaxassisligi va tadbirkorlik faoliyati jadidlar ilgari surgan zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish g‘oyasi bilan uyg‘un edi.Ikkinchidan, o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan jadidchilik harakati va milliy matbuotni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida foydalangan. Tarixiy ma’lumotlarda uning Farg‘ona vodiysidagi taraqqiyparvar kuchlarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagani qayd etiladi.[7] Bu esa ma’rifatparvarlikning amaliy tomonini namoyon etadi.Uchinchidan, Obidjon Mahmud matbuotni xalqning ijtimoiy ongini yuksaltirish vositasiga aylantirishga harakat qildi. Matbuot orqali ma’rifat tarqatish, xalqni zamonaviy dunyo bilan tanishtirish va milliy manfaatlar haqida fikrlashga undash jadidchilik harakatining muhim vazifalaridan biri bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan Obidjon Mahmud faoliyatida «ma’rifat – iqtisodiy faollik – milliy uyg‘onish – taraqqiyot» o‘rtasida o‘ziga xos bog‘liqlikni ko‘rish mumkin.Ma’rifatli jamiyat o‘z taraqqiyot yo‘lini anglaydi. O‘z taraqqiyot yo‘lini anglagan millat esa ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol bo‘lishga intiladi. Obidjon Mahmud va uning safdoshlari faoliyatida ushbu g‘oya amaliy mazmun kasb etdi.

Jadidchilikdan milliy davlatchilik g‘oyalariga

1917-yilda Rossiya imperiyasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar Turkiston jadidlari oldida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Endi ma’rifat va islohot g‘oyalari bilan bir qatorda milliy siyosiy huquqlar, mahalliy boshqaruv va davlatchilik masalalari ham kun tartibiga chiqdi. Obidjon Mahmud ushbu jarayonlarda faol qatnashdi. Manbalarda uning 1917-yilda Qo‘qon shahar Dumasi raisi o‘rinbosari bo‘lgani, keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumati tarkibida oziq-ovqat vaziri sifatida faoliyat olib borgani qayd etiladi.[8]Bu

jarayon uning ma’rifatparvarlik faoliyatining mantiqiy davomi sifatida ham qaralishi mumkin. Chunki jadidlar uchun ma’rifatning pirovard maqsadi faqat savodli insonlarni tarbiyalash emas, balki o‘z huquqlarini anglaydigan, millat va jamiyat taqdiri uchun mas’uliyatni his qiladigan fuqarolarni shakllantirishdan iborat edi. Obidjon Mahmudning ijtimoiy-siyosiy faolligi ham uning millat taraqqiyotini keng ma’noda tushunganini ko‘rsatadi. Uning qarashlarida iqtisodiy taraqqiyot, ma’rifat, matbuot va jamoatchilik faolligi o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli Obidjon Mahmud shaxsini faqat jadid noshiri yoki siyosiy arbob sifatida emas, balki milliy modernizatsiya g‘oyalarini amaliy faoliyatida birlashtirishga intilgan taraqqiyparvar ziyoli sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Obidjon Mahmud ma’rifiy merosining bugungi ahamiyati

Obidjon Mahmud faoliyatidan kelib chiqadigan eng muhim tarixiy xulosalardan biri – milliy taraqqiyotning ilm, ma’rifat va zamonaviy tafakkur bilan bevosita bog‘liqligidir. Uning hayot yo‘lida bu g‘oya bir nechta ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: zamonaviy kasb va bilimlarni egallash; iqtisodiy faol bo‘lish; milliy matbuotni rivojlantirish; ma’rifatparvarlik harakatini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash; jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish. Ayniqsa, uning matbuotga bergan ahamiyati bugungi axborot jamiyati sharoitida ham diqqatga sazovor. XX asr boshlarida gazeta jamiyat tafakkurini yangilashning muhim vositasi bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot maydonining imkoniyatlari yanada kengaygan. Biroq asosiy vazifa o‘zgarmagan: insonni bilimli qilish, uning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini kuchaytirish. Obidjon Mahmud va boshqa jadidlarning tarixiy tajribasi ma’rifatning millat hayotida bir martalik jarayon emasligini ko‘rsatadi. Ma’rifat doimiy yangilanish, bilim olish, dunyo tajribasini o‘rganish va uni milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Shu bois jadid ma’rifatparvarlarining merosini o‘rganish tarixiy xotirani tiklash bilan birga, zamonaviy taraqqiyotning ma’naviy va intellektual asoslarini chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati milliy taraqqiyot tarixida muhim o‘rin tutadi. Jadidlar jamiyatni yangilashning asosiy yo‘lini ma’rifat, zamonaviy ta’lim, ilm-fan va milliy tafakkurni yuksaltirishda ko‘rdilar. Obidjon Mahmud (1871–1936) ana shu harakatning Farg‘ona vodiysidagi faol namoyandalaridan biri sifatida milliy taraqqiyot g‘oyalarini amaliy faoliyati bilan uyg‘unlashtira oldi. Uning zamonaviy kasbiy bilimlarni egallashi, tog‘-kon va tadbirkorlik sohasidagi faoliyati, jadidchilik harakatini qo‘llab-quvvatlashi, bosmaxona tashkil etishi va milliy matbuot rivojiga hissa qo‘shishi buning yaqqol dalilidir. «Sadoi Farg‘ona», «Tirik so‘z» va «Ferganskoye exo» kabi nashrlar bilan bog‘liq faoliyati orqali Obidjon Mahmud matbuotni ma’rifat tarqatish va jamiyat tafakkurini yangilash vositasi sifatida qo‘lladi. Uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki esa ma’rifatdan milliy o‘zlikni anglash va jamiyat taqdiri uchun mas’uliyatga olib boruvchi uzviy jarayon mavjudligini ko‘rsatadi. Uning merosi ilmli, mustaqil fikrlaydigan, iqtisodiy faol va Vatan taraqqiyotiga daxldor avlodni tarbiyalash nuqtayi nazaridan ham muhim tarixiy-ma’rifiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N.B. Jadid Obidjon Mahmudovning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlari // Ilmiy xabarnoma. – 2020. – № 5 (49). – B. 47–48.
2. Komilov N.B. Turkiston jadidlaridan Obidjon Mahmudovning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, madaniy faoliyati (1871–1936 yy.). – Andijon, 2021. – B. 16.
3. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy majlis a’zolari hayoti va taqdiri. – Toshkent, 2021. – B. 33–35.
4. Komilov N.B. Turkiston jadidlaridan Obidjon Mahmudovning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, madaniy faoliyati... – B. 18–19.
5. Komilov N.B. Jadid Obidjon Mahmudovning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlari. – B. 50–51.
6. Rajabov Q. Ko‘rsatilgan asar. – B. 33–35.
7. Rajabov Q. Ko‘rsatilgan asar. – B. 33–35; Komilov N.B. Turkiston jadidlaridan Obidjon Mahmudovning hayoti... – B. 20–21.